

“Mirzo Ulug‘Bek vorislari” Respublika tanlovi

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, ularni ilmiy-texnik faoliyatiga keng jalb qilish, iqtidorli yoshlarning, jumladan, olis hududlarda istiqomat qilayotgan yigit-qizlarning bilim, ko‘nikma va malakasini oshirish maqsadida respublikamizning barcha hududlarida “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovi o‘tkazilmoqda.

Joriy yiln

ing 14-mart kuni “Mirzo Ulug‘bek vorislari” ko‘rik tanlovi Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanidagi hokimlik binosida bo‘lib o‘tdi. Bunda “Elektr ta‘minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasining EcoEnergy jamoasi a‘zosi Shukurullayev Toshpo‘lat muvaffaqiyatli ishtirok etdi va yuqori natija ko‘rsatib tuman g‘olibligini qo‘lga kiritdi. Viloyat bosqichiga yo‘llanmani oldi.

“MikroGES” loyihasining taqdimotini bilan ishtirok etgan talabaga hakamlar hay‘ati tomonidan esdalik sovg‘alar topshirildi. Ko‘pgina qatnashuvchilar orasidan o‘zining loyihasi bilan g‘olib bo‘lgan talabamiz viloyat bosqichida ham yuqori natijalarni qo‘lga kiritishni oldiga maqsad qilgan. EcoEnergy jamoasining boshqa hududlarda ishtirok etayotgan a‘zolaridan ham yuqori natijalar kutib qolamiz.



“Elektr ta‘minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari “ kafedrası tayanch doktoranti Alisher Davirov axboroti